



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazariy ravvoflik kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazaga, 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasiga garmatirasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramtina ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 2615-9110

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan chiqqa boshlagan

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonand testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mustahkamligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Axtulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mustahkam jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohilul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazini talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'rnatish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'rnatishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'liq lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchlisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rnatish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

O'quv materialining nostandart test shaklida o'zgarib turilishi ta'lim mazmunining puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga nostandart test bilimlarni tanish va yangi sharoitlarga ko'chirish, ularni amaliyotga tatbiq etishning asosiy vositasidir. Ona tili ta'limiga oid nostandart testlarni bajarish o'quvchilarda nutqiy faoliyat takomillashishiga, nutq ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Binobarin, nostandart test o'quvchida ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan faoliyat turini rivojlantirish va tarbiyalashning bosh omillaridan hisoblanadi.

Ona tilidan nostandart testlarni bajarish jarayonida qator talablarga rioya qilinadi: nostandart testni bajarish uchun zaruriy bilimni o'quvchi o'z shaxsiy bilimlari orasidan izlaydi yoki o'rganilgan bilim va o'zlashtirilgan faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq etadi yoxud bilim va faoliyat usullarini notanish – yangi sharoitda qo'llaydi. Yangi bilim va yangicha faoliyat usullarini egallab borishida xizmat qiladi.

Nostandart test – mustaqil o'rganilgan yangi bilimlarni sinovdan o'tkazishda samarali natija beradi. Sifat so'z turkumiga oid nazariy qoidalarni o'rgatishdan oldin bolalarga shunday nostandart testlar bilan murojaat qilish mumkin:

Shirin	Hovli
Go'zal	Olim
Manzarali	Tosh
Devoriy	Qovun
Shinam	Devor
Buyuk	Tasvir

1. Ochiil Roziqov, Meles Mahmudov, Bahtiyor Adizov, Alijon Hamroyev, "Ona tili didaktikasi", Yangi asr avlodi, Toshkent–2005, 50-bet.

Rang-barang	Ayol
Yassi	Gazeta
Qoramtir	Daraxt

Nostandart testni sifatlarning ma'naviy guruhlari va so'roqlarini qo'llay olgan o'quvchigina bajara oladi. So'z valentliklarini to'g'ri qo'llagan holda so'z birkmalarni tuza olish, hosil bo'lgan so'z birkmalarni nutqda o'rinni qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantirish testdan ko'zlangan asosiy maqsadni ifodalaydi.

Testni bajarish, uni qayta tahlil etish yo'li bilan chiqarilgan xulosa o'quvchi uchun yangi bilim, mustaqil faoliyat natijasi sanaladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladi, bir nostandart testdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Agar oldin nostandart test o'rganilgan bilimlarga oid bo'lsa, mashq qilish vositasi, agar nostandart test mustaqil xulosa chiqarishga mo'ljallangan bo'lsa, ijod qilish vositasi sanaladi. Amaldagi ona tili ta'limida fanning asosiy o'quv materiali – grammatik ma'lumotlar va ularni o'zlashtirish hamda mustahkamlash uchun berilgan mashq va topshiriqlar hisoblanadi. Aslida bu eskicha yondashuv bo'lib, bugungi zamonaviy ta'lim – grammatik qoidalariga asoslanishni inkor qilmoqda. Shunga asoslangan holda aytish mumkin, ona tili ta'limining mazmunini faqat ilmiy tilshunoslik masalalari emas, balki hayotning har qanday jabhasida fikrni aniq va lo'nda, ravon va mantiqli tarzda yetkazib berish ko'nikmasini shakllantirish masalasi tashkil etadi. Bu jarayonni yuzaga keltirishda muhim omillardan biri sifatida nostandart testlarni o'quv dasturlari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

Tojixon SABITOVA,

TVChDPI Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası f.f.n.dots.

MAQOLLAR BADIYYATIGA DOIR

Maqol – xalq og'zaki ijodining juda ixcham, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida yuzaga keladi. Maqollar o'zlarining ijtimoiy funksiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollardagina ba'zi ijtimoiy guruhlarining dunyoqarashini ifodalaydi. Mana shuning uchun ham maqollarning tematik ko'lami juda keng bo'lib, bu ko'lami juz'iy hayotiy voqealik bilan chegaralab bo'lmaydi. Ijtimoiy hayotning hech bir sohasi yo'qki, u maqol janrida aks etmagan bo'lsin. Umumiyroq qilib aytganda, maqol ham makoniy, ham zamoniy jihatdan

voqealikdagi har qanday sabab-oqibat munosabatlarini o'zida to'liq aks ettiradi.[8,197]

Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida to'plangan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan bo'lib, u eng qadimiy va ommaviy hisoblanadi. Maqollar mehnatkash xalq ommasining ma'naviy qiyofasi, ideali, orzu-umidlari, intilishlari va tabiat, jamiyat hodisalari haqidagi xulosalari, hukmi va tavsiyalarini mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralarning umumlashmasi ifodasidir. [3,63]

"Maqol" atamasining kelib chiqishi arabcha so'zla-moq, aytmoq, gapirmoq ma'nosini anglatadigan "kalvium" so'ziga bog'liqdir. Har bir xalq o'z maishiy hayotidagi voqealari o'xshash hodisalar bilan boglab qolippa solgan. Hayot har qancha murakkab bo'lmasin, ana shunday kichik-kichik lavhalaridan iborat. Har bir qolippa tushgan voqea haqida esa, albatta, bitta dono, hikmatli maqol yaratilgan, chunki o'tmishda siz va bizdan ancha tajribali, aqlli, purna mo' so'zga usta odamlar yashaganlar. Ular ham hammamiz kabi tabaati va jamiyatida aynan bizning ko'rganlarimizga o'xshash juda ko'p hodisalarini ko'rishgan. Shunda ulardan biron-tasi o'z fikrini juda aniq, qisqa va chiroyli tarzda ifodalagan. Masalan, "Aytishsangiz so'z chiqadi, tortishsangiz ko'z chiqadi". Xalqimizning hayot tajribasi haqidagi ana shunday dono hikmatlar "maqol" deyiladi. Shuningdek, ilmiy odamning hurmati hamisha ilmsizdan yuqori turgan, u odamning davlati bo'lmisligi mumkin, ammo ko'ngli tinch, boshqalar oldida yuqori yorug', bironidan tili qisiq bo'lmagan. Shuning uchun "Olim bo'lsang, odam seniki" maqoli yaratilgan. Misollar: *Ona yurtling - oltin beshiging*. *Yaxshi so'zdan moy eryladi, Yomon so'zdan soy quriydi*. *Yaxshi o'g'il tindirar, Yomon o'g'il o'ldirar*. *Tog'u toshni sel buzar, Odamzodani so'z buzar*. *So'nggi pushaymon - o'zingga dushman*.

O'zbek xalqining o'n uch mingdan ortiq maqollari to'plangan. Ularning har biri bizzning qimmatbaho merosimizdir. Xalq maqollarining fazilatlaridan biri ularning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishidir. Ayrim maqollar borki, ularda qanday fikr bildirilgan bo'lsa, o'sha fikr nazarda tutiladi. Masalan, "yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda".

Haqiqatan ham, agar yer kuzda haydalsa, qish davomida yoqqan qor, erta bahordagi yomg'ir unga yaxshi singadi, yer nam to'playdi. Agar kuzda haydamasa, bahordagi yer haydash yaxshi natija bermaydi. Demak, bu maqolda fikr o'z ma'nosida kelgan. Faqat ayrim-ayrim paytdagina bu maqolda har bir ishini o'z vaqtida qilish kerak, degan maqsadda foydalaniladi. Shuning uchun uni o'z ma'nosida qo'llanadigan maqol deyish mumkin.

Shunday maqollar borki, ular asosan ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan, *Til - tugsu, tish yecholmas*. Savol tug'iladi: Xo'sh, til nimani tugishi mumkin? Til kelishmovchilikni chiqarishi, janjalni tugishi mumkin. Endi ikkinchi savol. Tish nimani yecholmaydi? Xalq tish deganda, kuchni nazarda tutayti. Ma'lum bo'ladi, ko'z bilan paydo bo'lgan janjal kuch bilan hal bo'lmaydi. Bu janjalni yana o'sha tilning o'zi, ya'ni so'z hal etadi. Demak, har qanday kelishmovchilikni so'z bilan murosala qilib yechish mumkin ekan. Aks holda o'rtada urinishlar, mushlamlashlar, hatto katta kurashlar paydo bo'lishi mumkin. Bunda fikr ko'chma ma'noda kelgan.

Yana shunday maqollar borki, ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llash mumkin. Masalan, *"Temirni qizig'ida bos"*, Darhaqiqat, temirchilar temirga qizig'ida ishlav beradilar. Qizigan temirni bolga bilan urganda, u turli, istalgan shaklga keladi. Ammo bu maqolning ko'chma ma'nosi ham borki, ya'ni har bir ishini o'z vaqtida qilish kerak, degan hikmat bu maqolda aks etgan. Agar kechiksangiz, u ish ko'ngildagidek bilmaydi. Demak, xalqimiz maqollari ma'no jihatidan juda boy va sermazzun ekan. Maqollar yosh avlod ongini o'stirishda,

ularga rostgo'ylik, mehnatsevarlik, mardlik, qahramonlik, vatanparvarlik, sabotli va matonatli bo'lish, do'stlik, insonparvarlik kabi eng yaxshi insoniy fazilatlarni singdirishda muhim va eng qulay tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan: *"Bulbul chamanni sevar, odam - Vatanni"*, *"Vatangado bo'lguncha, kafangado bo'li"*, *"Vataning tinch - sen tinch"*, *"Dil og'ritgan do'st emas"*, *"Baxt yalqovga begona"*, *"Ishyoqmas - rohat topmas"*, *"Tirishgan tog'dan oshar"*.

Xalq maqollari qadim zamonlardan olimlarni, shoir va yozuvchilarni o'ziga jalb qilgan. Masalan, bundan ming yil avval Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'ati turk" asarida *"Osh totug'i tuz"*, *"Mol olasi tosh-tin"*, *"Odam olasi ichtin"* kabi maqollari keltirilgan. Alisher Navoiy o'z asarlarida *"Qamishzorga o't tushsa, ho'lu quruq baravar yonar"*, *"Uyqu o'lmidir"* asabi maqollardan foydalangan. Gulxaniy "Zarbulmasaf" kabi maqollar yuzlab maqollarni keltiradi. Abdulla Qahhor o'z hikoyalarini *Oltin o'limi - itning bayrami*, *Quruq qoshiq og'iz yirtar* kabi maqollar bilan bezagan.

Ma'lum bo'ladi, xalq maqollaridan yozma adabiyot vakillari ham unumli foydalanganlar. Bu maqollar yozma adabiyot asarlarini o'qishli, esda qolishli qilgan. Yozuvchining maqsadini sodda, ravon, aniq tarzda ifodalashga ko'maklashgan.

Xalq maqollari badiiy jihatdan mukammalligi bilan ham qadrlidir. Bu mukammallik, avvalo, ularning ixchamligida ko'rinadi. Bir nechtagina so'zdan iborat bo'lgan maqol juda chuqur mazmuna ega. Maqollarda xalq juda chiroyli o'xshatish, jonlantirish, sifatlash kabi badiiy san'atlarni kashf qilgan, qo'lyali so'zlar qo'llagan. Misol: *"Kasal botmonlab kelar, misqolab ketar"*, *"Og'riq joyini topsa, olti oy qishlaydi"*. Bu maqollar sog'lik haqida yaratilgan. Ularda inson o'zini-o'zi hamisha asrash, sog'ligiga e'tibor berishi lozimligi uqtiliradi. Shu bilan birga kasal va og'riq odamdagii xususiyatlarga egadek ko'rsatiladi. *Kelish-kelish, topish-qishlash* odamlarga xos. Natijada jonlantirish san'atidan foydalangan holda *kelish, qishlash* kabi belgilardagi kasal va og'riqqa nisbat beriladi.

Xalqimiz maqollarining aksariyatida yaxshi, yomon, o'tmas, o'tkir kabi so'zlar sifatlovchi bo'lib keladi: *"O'tmas pichoq qo'l kesar"*, *"Yaxshi qo'shni o'ta-ona, Yomon qo'shni - boshga balo"*. Bunday tasvir vositasi maqollarining tushunarli, bo'lishi, aniq ma'noni ifodalash uchun yordam beradi. Xalq maqollarini belgisiz o'xshatishli tasvir vositasiz tasavvur qilish qiyin. Ularda *go'yo, misli, kabi* so'zlar hamisha maqol aytuvchining xayolida turadi: *"Ginalik do'st - adovatli dushman"*, *"Yoz mevasi - qish xazinasi"* Bu maqollarda imlodagi tire (-) o'rniga hech ikkilanmay "go'yo", "xuddi" kabi so'zlarni qo'yish mumkinligi sezilib turibdi, ya'ni *ginalik do'st xuddi adovatli dushman*ga o'xshaydi yoki *yo'z mevasi xuddi qishning xazinasi*ga o'xshaydi kabi.

Xalq maqollari, ko'pincha, grammatik jihatdan shaxsi topilmas va shaxsi umumlashgan gaplardan iborat bo'ladi, chunki xalq maqollaridan ma'no aniq bir nazarda tutilgan odamdagina emas, balki hammaga tegishlidir. Agar *"Oyni etak bilan yopib bo'lmas"* maqoli shaxsi topilmas gap ko'rinishiga ega bo'lsa. *"Bugungi ishini ertaga qo'yma"* maqoli shaxsi umumlashgan gapdan iborat.

Xalq maqollari juda mahorat bilan topilgan qofiyadosh so'zlarga boy. *Tog'-bog, eshikdan-teshikdan, ovchi-dovchi, uzar-tuzar* kabi qofiyadosh so'zlar fikrni aniq ifodalashga xizmat qilgan. Maqollarda ba'zan qofiyadosh so'z uchramasligi mumkin. Ammo baribir ularning qaysidir tomonlari sizga yoqadi. Ular xuddi yaxshi she'ming boshlanishiga o'xshaydi. Lekin siz bu maqollarning qaysi xususiyati sizni o'ziga tortayotganini so'z bilan aytolmaysiz: *O'nta bo'lsa, o'mi boshqa, qirqta bo'lsa - qilg'i?* maqolida qofiyadosh so'zlar yo'q. Lekin bir xil tovushli so'zlar bor. *O'nta, o'mi* so'zlarida "o", *boshqa, bo'lsa* so'zlarida "b", o'mi, qirqta, qilg'i "q" tovushlari va hokazo.

Ma'lum bo'ladiki, maqoldagi birona so'z o'zi alohida boshqa so'zlardan ajralgan holda ishlatilmagan. Maqollarni esda saqlab qolish oson. Xalq maqollari yuz yillar davomida o'zbek millatidagi hamma odamlarga ta'sir qilgan. Ana shuning uchun ham ma'qul bo'lgan, maqollardan hamma lazzat topadi.

O'zbek tili grammatikasida shaxsi umumlashgan gap va shaxsi topilmas gap haqida ma'lumotlar bor. Maqollar ma'no jihatdan ko'pincha ana shunday gaplardan iborat bo'ladi. Masalan: "O'yni etak bilan yopib bo'lmas", "Og'rimagan boshimga oltin isirg'a" maqollar va shaxsi topilmas gapga misol bo'lsa, "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l", "Yaxshi oshim qolguncha, yomon qornim yorilsin" maqollari shaxsi umumlashgan gaplardan iborat. Ko'pincha maqollar ikkinchi shaxs birlikka murojaatdan iborat bo'ladi. Ular ma'no jihatdan hammaga taalluqli hukmdan iboratdir.

Shunday qilib, xalq maqollari badiiy jihatdan go'zal, mazmunan mukammal xalq hikmatli so'zlaridan iborat. Shuning uchun ham *So'z ko'ri - maqol. Otalar so'zi - aqlning ko'zi* kabi maqollarda ularning shakli va mazmuni haqidagi aniq fikr ifodalangan, deyish mumkin.

Xullas, xalq maqollarida badiiy ifoda hamda tasviriy vositalar rang-barang bo'lib, ular asar mazmunini real-lashtirish, maqolning izchil g'oyaviy funktsiya ado etishi-

ga imkon beradi. Maqollar xalqning uzoq davrlar mobaynida hayot tajribasidan o'tgan, ming karra sinalgan donolik qomusi bo'lib, u kishilarni ezigulikka, olijanoblikka undadi va insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnat-sevarlik hamda tinch-totuv yashashga chorlashi bilan hamma vaqt hayot darsligi bo'lib xizmat qiladi.

Matallar esa yaratilishi jihatidan bunday vazifani bajarishga mo'ljallanmagan. Ular odamlarning nutqida qo'llaniladi. Matal qo'llangan nutqda gapning bir bo'lasi sifatida ma'no anglatadi. Lekin matalning o'zi alohida holda aytilsa, to'la ma'noga ega bo'lmaydi. Masalan: *Tomdan tarasha tushganday* matalini olib ko'raylik. Bu matal tugal fikr anglatuvchi gap emas. Unda ma'noni anglatuvchi ega va kesim yo'q. Lekin shu matal birona ta'ali bu gapda hol vazifasida kelgan va "qanday", "qay tarzda" savollariga javob bo'ladi. Ma'no jihatdan esa "qo'pol", "yoqimsiz" kabi so'zlarning o'rnida qo'llangan. Ya'ni, "Bugun o'rtog'im qo'pol (yoqimsiz) gapirdi" jumlasidagi "qo'pol" so'zi o'rniga matal keltirilyapti. Shu bilan gapni aytayotgan odamning xalq og'zaki ijodidan xabardor ekani, gapga usta ekani seziladi.

Matallar maqollarga juda yaqin turadi. Hatto ba'zan bitta maqol matalni ikkiga bo'lib gapga shunday singdirib yuborish mumkin, bitta maqol ikkita matal ko'rinishini eslatib yuboradi. Masalan: "Yaxshi gap bilan inidan chiqar, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar" degan maqol bor. Shu maqoldan foydalanib shunday jumla tuzaylik: "Biz hamisha ilon inidan chiqadigan qilib so'zlashimiz kerak, yo'qsa tomdan tarasha tushgandek gapiraversak qilich qinidan chiqadi". Bu jumladan yuqoridagi keltirilgan maqol o'zining maqollik xususiyatini yo'qotgan va matalga aylangan.

Shunday qilib, matallarni shaklan maqolga o'xshash bo'lib notiq nutqini bezash uchun yaratilgan janr deyish mumkin.

ADABIYOTLAR.

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., «O'qituvchi», 1990. 91—99-betlar.
2. Sarimsoqov B. Maqollar. O'zbek folklorining ocherklari, 1- jild, T., 1988. 95—98-betlar.
3. Sobitova T. Xalq ijodi saboqlari. T. Mumtoz so'z. 2011
4. O'zbek xalq maqollari. Ikkijildlik. T., 1988, 1989.
5. Husainova Z. O'zbek to'pishmoqlari. T., «Fan» 1966.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T., «O'qituvchi». 1990. 100—108-betlar.
7. To'pishmoqlar. O'zbek xalq ijodi. Ko'p jildlik. T., 1983
8. O'zbek xalq maqollari. T., «Fan», 1978.B. 197
9. O'zbek xalq to'pishmoqlari. T.: «Fan», 1978.

Sirdaryoxon O'TANOVA,
Filologiya fanlari nomzodi

ADABIY QAHRAMONLAR RUHIYATI VA TASVIR MUSHTARAKLIGI

Millatimiz faxri, umumturkiy adabiyotning gultoyi, nasr bog'ining beqiyos navogo'yi Alisher Navoiyning mashhur beshligi tarkibiga kiruvchi "Sab'ali sayyor" dostoni uning ijodida alohida yo'nalish sifatida tasni-

flangan va bugungi kungacha ular yuzasidan bir necha yuzlab tadqiqotlar yuzaga kelgan. Doston kompozitsiyasini ranglarning ramziy qatlamli va poetik ma'no tovlanishlarga ko'ra yaratishi va bir necha yuzlab rang